

**MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI
TALABLARI ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNING HISOBINI
TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI**

Жиззах политехника институти

“Иқтисодиёт ва менежмент” кафедраси

ўқитувчиси Бобобеков Бахром Қаххорович

Жиззах политехника институти

Сервис факультети БХ ва А йўналиши талабаси

Мамирова Мадинабону Бехзод кизи

Аннотация: Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, uning talablari va maqsadlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarning hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari, asosiy vazifalari va ushbu jarayonni yanada yaxshilashga qaratilgan chora tadbirlar aks etgan.

Калит so`zlar: Mulkchilik, milliy standart, investor, sub'ekt, moliyaviy hisobot, kapital, daromad, xarajatlar, tovar-moddiy zaxiralar, investitsiya, moddiy aktivlar.

**МЕТОДОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕТА ЗАПАСОВ В
СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МЕЖДУНАРОДНЫХ
СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ**

Джизакский политехнический институт

Кафедра «Экономика и управление».

преподаватель Бобобеков Бахром Қаххорович

Джизакский политехнический институт

Студент ВН и А направления сервисных факультетов

Мамирова — дочь Мадинабону Бехзода.

Аннотация: В данной статье рассматриваются международные стандарты отчетности, их требования и проблемы. , отражены правовые основы организации складского учета, мероприятия по совершенствованию производства и производственного процесса.

Ключевые слова: Собственность, национальный стандарт, инвестор, организация, отчет о прибылях и убытках, капитал, доход, доход, товарные ресурсы, инвестиции, материальные ценности.

**METHODOLOGY OF ORGANIZING THE ACCOUNT OF
INVENTORIES ACCORDING TO THE REQUIREMENTS OF
INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING**

Jizzakh Polytechnic Institute

Department of "Economics and Management".

teacher Bobobekov Bakhrom Kakhkhorovich

Jizzakh Polytechnic Institute

Student of the BX and A direction of the Faculty of Service

Mamirova is the daughter of Madinabonu Bekhzod

Abstract: This article discusses the international standards of financial reporting, its requirements and objectives. Also, the legal basis, main tasks and measures aimed at further improving this process are reflected.

Key words: Ownership, national standard, investor, entity, financial reporting, capital, income, expenses, inventory, investment, tangible assets.

Mulkchilik va tarmoq shaklidan qat'iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy hisobotlarini milliy standartlardan xalqaro standartlar asosida tuzish muhim hisoblanib, xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xorijiy investorlar tomonidan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi va o'zining sarmoyasini kiritish bo'yicha engilliklar tug'diradi. Buxgalteriya hisobi ma'lum bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt to'g'risida moliyaviy ma'lumotlarni aniqlash, qayta ishlash va moliyaviy hisobot shaklida faoliyat yurituvchi sub'ektning moliyaviy holatiga qiziquvchi foydalanuvchilarga ma'lumotni yetkazib berishni amalga oshiradigan axborot tizimdir. Buxgalteriyaning maqsadi – turli foydalanuvchilarni ma'lumotga bo'lgan ehtiyojini, ushbu ma'lumotni olish uchun eng kam sarf-xarajatlar bilan qondirishdir. O'z-o'zidan ma'lumki qarorlarni qabul qilish uchun axborot tizimdan foydalanish natijasida olinishi mumkin bo'lgan iqtisodiy naflar ushbu tizimga ketgan xarajatlardan ustun bo'lishi lozim.

Demak, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari predmeti bo'lib, xalqaro standartlar asosida pul ifodasida aks ettiriladigan xo'jalik mablag'lari, shu mablag'lar manbalari, ularning xo'jalik faoliyati va moliyaviy natijalari bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moddiy va nomoddiy aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad va xarajatlar, foyda va zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining ob'ektlari hisoblanadi. Aktivlar - avvalgi davrlarda sodir etilgan hodisalar natijasida olingan va korxonadan tomonidan nazorat qilinadigan, ularni foydalanishdan kelajakda iqtisodiy naf olinishi kutiladigan resurslardir. Majburiyatlar – bu avvalgi davrlarda sodir etilgan hodisalar natijasida paydo bo'lgan korxonaning joriy qarzi, ushbu qarzlarni qaytarilishi natijasida korxonaning iqtisodiy nafni o'z ichiga olgan resurslarni kamayishiga olib keladi. Xususiy kapital – bu barcha majburiyatlarni ayrgandan keyin korxonaning aktivlardagi bo'lgan ulushi. Foyda - bu xo'jalik sub'ektiga ta'sir etadigan asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat, hodisalar sharoitlar natijasida kapitalning ko'payishi bo'lib, xususiy kapitalga to'lanadigan kapital bundan mustasnodir. Zararlar – bu asosiy faoliyat va barcha xo'jalik muomalalari, hodisalar, sharoitlar natijasida xususiy kapitalning kamayishi bo'lib, harajatlar yoki xususiy kapitalning taqsimlanishi natijasidagi kamayish bundan mustasnodir. Foyda faoliyat natijalarini o'lchashda yoki boshqa ko'rsatkichlarni, ya'ni investitsiyani olib kelgan foydasi, bir aktsiyaga to'g'ri keladigan foyda kabilarni asosi sifatida foydalanadi. Foydani o'lchash bilan bevosita bog'liq elementlar – bu daromadlar va xarajatlardir.

Daromadlar – bu aktivlarni kelib tushishi yoki ko'payishi yoxud majburiyatlarni kamayishi shaklida vujudga keladigan va pirovard natijasida xususiy kapitalni oshiradigan iqtisodiy naflarni ko'payishi, ammo aktsiyador kapitalga ta'sischi tomonidan to'lanadigan badallar bundan mustasnodir. Xarajatlar - bu aktivlarni sarflanishi yoki yemirilishi yoxud majburiyatlarni ko'payishi shaklida vujudga keladigan va pirovard natijasida xususiy kapitalni

kamaytiradigan iqtisodiy naflarni kamayishi, ammo aktsiyador kapitalni ta'sischilar orasida taqsimlanishi bundan mustasnodir.

Tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir¹.

Tovar-moddiy zahiralarga xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo'lmagan yoki bir operatsion tashkil mobaynida foydalaniladigan mol-mulklar, jumladan, qurilish – ta'mirlash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg'i va yonilg'ilar, ozuqa va em- hashak, tara (idish)lar, qishloq xo'jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish buyumlari, o'stiruvdagi va boquvdagi chorva mollari, o'quv, ilmiy va boshqa maqsadlar uchun materiallar hamda laboratoriya sinovida bo'lgan, uzoq vaqt foydalaniladigan materiallar, shartnoma asosida bajariladigan ilmiy-kurs ishi ishlari uchun maxsus asbob- uskunalar va boshqalar qiradi.

Tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir.

Tovar-moddiy zahiralarga xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo'lmagan yoki bir operatsion tashkil mobaynida foydalaniladigan mol-mulklar, jumladan, qurilish – ta'mirlash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg'i va yonilg'ilar, ozuqa va em- hashak, tara (idish)lar, qishloq xo'jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish buyumlari, o'stiruvdagi va boquvdagi chorva mollari, o'quv, ilmiy va boshqa maqsadlar uchun materiallar hamda laboratoriya sinovida bo'lgan, uzoq vaqt foydalaniladigan materiallar, shartnoma asosida bajariladigan ilmiy-kurs ishi ishlari uchun maxsus asbob- uskunalar va boshqalar qiradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, umuman byudjet tashkilotlari hisob tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar talablaridan kelib chiqib tovar moddiy zahiralari hisobini yanada yaxshilashda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Tovar moddiy zahiralari hisobini qonuniy xujjatlar talablariga qat'iy amal qilgan xolda amalga oshirish; byudjet tashkilotlarida tovar moddiy zahiralari hisobdan chiqarish bo'yicha alohida yo'riqnoma ishlab chiqish va tasdiqlash; tovar moddiy zahiralari o'z vaqtida to'g'ri buxgalteriya xujjatlarida hamda hisob registrlarida aks ettirishni ta'minlash uchun ichki hisob siyosatini tasdiqlash; tovar moddiy zahiralari byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan kirim qilinganligini aks ettirish uchun ishchi schyotlar rejasini tuzib olish. Ya'ni Byudjet tashkiloti ishchi schyotlar rejasini tasdiqlayotganda 06 "Boshqa tovar-moddiy zahiralari" schyotining tegishli subschyotlarini tashkilotga kirim qilingan materiallar manbaalari bo'yicha alohida shakllantirib olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Norbekov D.E., Ochilov I.K. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma T: 2019 yil.
2. Mehmonov S., D.Ubaydullayev. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. Darslik. T: Sano-Standart 2013 yil.
3. Mehmonov S.U Byudjet hisobi. O'quv qo'llanma. T: Fan va texnologiya 2012.
4. Ostanaqulov M. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009.
5. Ostanaqulov M. Byudjet hisobi. Darslik. T.: "TALQIN", 2008.